



CULTURAL FUNCTIONS OF LANGUAGE

Feruza Tursunova

Senior lecturer of the Department
of English Language Teaching Methodology
the Uzbekistan University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan

Abror Ashurov

Head of Department, PhD
University of Business and Science
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Language, society, thinking, consciousness, culture, values, heritage, social consciousness, memory, identity, communication, globalization, technology, value system, national language.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article illuminates the social essence and cultural functions of language based on socio-philosophical analysis. Language is interpreted as the basis of the existence of society, a means of forming social consciousness and thinking. Also, language is studied as an integral carrier of culture, values, national heritage, and social memory. In the era of globalization and digital technologies, the new communicative possibilities of language and its significance in intergroup interaction are also analyzed. In national and global processes, the unifying, ensuring continuity, and forming of new social values functions of language are shown.

TILNING MADANIY FUNKSIYALARI

Feruza Tursunova

Ingliz tilini o'qitish metodikasi
kafedrasi katta o'qituvchisi
O'zbekiston jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Abror Ashurov

kafedra mudiri, PhD
University of business and science
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Til, jamiyat, tafakkur, ong, madaniyat, qadriyatlar, meros, ijtimoiy ong, xotira, identitet, kommunikatsiya, globallashuv, texnologiya, qadriyat tizimi, milliy til.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning ijtimoiy mohiyati va madaniy funksiyalari ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida yoritiladi. Til jamiyatning mavjudlik asosi, ijtimoiy ong va tafakkurni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, til madaniyat, qadriyatlar, milliy meros va ijtimoiy xotiraning uzviy tashuvchisi sifatida oʻrganiladi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida tilning yangi kommunikativ imkoniyatlari, ijtimoiy guruhlararo oʻzaro taʼsirdagi ahamiyati ham tahlil qilinadi. Milliy va global darajadagi jarayonlarda tilning birlashtiruvchi, uzviylikni taʼminlovchi va yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi funksiyalari koʻrsatiladi.

КУЛЬТУРНЫЕ ФУНКЦИИ ЯЗЫКА

Феруза Турсунова

Методика преподавания английского языка

старшего преподавателя кафедры

Узбекистанский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

Аброр Ашууров

заведующий кафедрой, PhD

University of business and science

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Язык, общество, мышление, сознание, культура, ценности, наследие, общественное сознание, память, идентичность, коммуникация, глобализация, технология, система ценностей, национальный язык.

Аннотация: В данной статье освещается социальная сущность и культурные функции языка на основе социально-философского анализа. Язык интерпретируется как основа существования общества, средство формирования общественного сознания и мышления. Также язык изучается как неотъемлемый носитель культуры, ценностей, национального наследия и социальной памяти. Также анализируются новые коммуникативные возможности языка в эпоху глобализации и цифровых технологий, его значение во взаимодействии между социальными группами. В процессах национального и глобального уровней показаны объединяющие, обеспечивающие

Kirish. Til insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy va eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalariga singib ketgan. U nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyat a'zolarining ongini, tafakkurini va ijtimoiy faoliyatini shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Tilning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida qadimdan buyuk mutafakkirlar to'xtalib o'tishgan. Masalan, Aristotel tilni insonning "logos"ga ega bo'lishi bilan bog'lab, uni ijtimoiy mavjudot sifatidagi asosiy belgisi sifatida ta'riflagan [1: 384.].

Til ijtimoiy ong shakllanishida, ma'naviyatni ifodalashda, milliy madaniyatni rivojlantirishda, qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida esa tilning funksional imkoniyatlari yanada kengayib, u raqamli texnologiyalar orqali yangi ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida asosiy vositaga aylanmoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari tilga yangi ko'rinishlar baxsh etib, uni inson faoliyatining turli sohalarida keng qo'llash imkonini bermoqda [2: 212.]. Tilning ijtimoiy mohiyatini anglash, avvalo, uni ijtimoiy hodisa sifatida baholashdan boshlanadi. Til

tabiiy-biologik jarayon natijasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy faoliyati mahsuli sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli tilni jamiyatdan ajratib bo'lmaydi: jamiyatsiz til mavjud bo'la olmaydi, tilsiz esa jamiyatning to'laqonli faoliyati imkonsizdir [3: 268.]. Til inson tafakkurining tashqi ko'rinishi, ong mahsullarining jamiyatda mavjud bo'lish shaklidir. Til orqali inson o'z fikrini boshqalarga yetkazadi, bilim va tajriba almashadi, jamiyat ongida umumiy tushunchalar shakllanadi. V. fon Humboldt ta'biri bilan aytganda, til "fikrlashning tashqi qobig'i" bo'lib, u ijtimoiy ongni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi [4: 328.]. Bizningcha, tilning tafakkur bilan uzviy bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, har qanday ijtimoiy ongning shakllanish jarayoni til orqali amalga oshadi. Inson tafakkuri qanchalik boy bo'lmasin, u til vositasida ifoda etilmasa, jamiyat uchun qiymatga ega bo'la olmaydi. Demak, til ijtimoiy ongning mavjudligi va rivojining kafolatidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jamiyatning birligi, ijtimoiy guruhlarning o'zaro muloqoti til orqali ta'minlanadi. Til odamlar o'rtasidagi aloqaning eng muhim shakli bo'lib, u ijtimoiy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, B. Anderson "tasavvur qilingan jamoalar" nazariyasida millatning shakllanishi ko'p jihatdan tilning umumiyliigi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [5: 256.]. Shu ma'noda til ijtimoiy identitet va hamjihatlikning asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, til ijtimoiy birdamlikni ta'minlovchi asosiy poydevor. Jamiyatda turli mafkuraviy, siyosiy yoki iqtisodiy

qarama-qarshiliklar bo'lishi mumkin, ammo til umumiyligi ularni birlashtirib turuvchi kuchdir. Ayniqsa millat shakllanish jarayonida tilning tutgan o'rni beqiyos.

Tilning ijtimoiy mohiyatini ochishda uning transmissiv (avloddan-avlodga o'tkazuvchi) vazifasi alohida ahamiyatga ega. Qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy voqealar va milliy meros til orqali keyingi avlodlarga yetkaziladi. Til ijtimoiy xotira sifatida xizmat qilib, madaniyatning davomiyligini ta'minlaydi [6: 214]. Biz tilni jamiyatning "ijtimoiy xotirasi" sifatida baholaymiz. Chunki har bir avlodning tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlari aynan til orqali keyingilarga o'tadi. Agar til boyligi yo'qolsa, millatning tarixiy xotirasi ham izdan chiqadi. Demak, til bu madaniyat davomiyligining kafolati.

Jamiyat ichida turli ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lib, ular o'zining tiliga, lahjasiga yoki nutqiy uslubiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa tilning ijtimoiy tabaqalanishini ko'rsatadi. Masalan, sotsiolog B. Bernshteyn tilning "cheklangan" va "kengaytirilgan" kodlari haqida gapirar ekan, ijtimoiy guruhlarining nutqiy farqlari ularning dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [7: 119]. Fikrimizcha, tilning tabaqalanishi jamiyat uchun salbiy emas, balki ijobiy hodisadir. Chunki nutqiy farqlar jamiyatda fikr xilma-xilligini yuzaga keltiradi. Bu xilma-xillik esa jamiyatning madaniy boyligini oshiradi va uni ijtimoiy jihatdan yanada rang-barang qiladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tilning ijtimoiy mohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Til faqat insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi emas, balki inson-mashina o'zaro ta'sirining ham markazida turibdi. Masalan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari orqali mashinalar inson tilini tushunish va unga javob qaytarish imkoniga ega bo'ldi. Bu esa jamiyatda yangi kommunikativ qadriyatlarni shakllantirishga olib kelmoqda [8: 67]. Biz sun'iy intellektni tilning ijtimoiy mohiyatini kengaytiruvchi yangi bosqich deb hisoblaymiz. Endilikda til nafaqat odamlar o'rtasidagi muloqot, balki inson va texnologiya hamkorligi vositasiga aylandi. Bu jarayon jamiyatda yangi qadriyatlar — raqamli savodxonlik, texnologik ong va global muloqot madaniyatini shakllantirmoqda.

Tilning ijtimoiy mohiyati uning insoniyatning umumiy tajribasi, ong va tafakkurini ifodalash, jamiyat a'zolarini birlashtirish, ijtimoiy xotirani avloddan-avlodga yetkazishdagi hal qiluvchi roli bilan belgilanadi. Sun'iy intellekt sharoitida esa tilning mazkur mohiyati yangi shakllarda namoyon bo'lib, ijtimoiy munosabatlar tizimini tubdan o'zgartirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Har bir nuqtadan ko'rinadiki, tilning ijtimoiy mohiyati bu nafaqat kommunikatsiya, balki jamiyatning ongiy, birdamligi, xotirasi va rivojlanishining poydevori. Sun'iy intellekt esa bu mohiyatni kengaytirib, tilni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tilni insoniyatning eng muhim ijtimoiy kapitali deb bilamiz.

Til jamiyatning madaniy boyliklarini ifodalash va ularni boshqalarga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Til orqali adabiyot, san'at, urf-odatlar va milliy qadriyatlar shakllanadi hamda avlodlarga o'tadi. E. Sapir tilni "madaniyatning kaliti" deb atagan, chunki u madaniy tajribalarni anglash va qayta tiklash imkonini beradi [9: 88]. Shaxsiy mulohazamizga ko'ra, til madaniyatning "og'zaki ensiklopediyasi". Agar til boy bo'lsa, milliy madaniyat ham keng qamrovli bo'ladi. Shu sababli tilning sofligi va boyligini asrash bu madaniyatni asrashdir.

Til millatning o'zligini anglash, boshqa xalqlardan ajralib turishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Til orqali milliy g'urur, tarixiy meros va umumiy qadriyatlar mustahkamlanadi. Masalan, A. Meillet tilni "millatning mavjudlik belgisi" sifatida ko'rsatadi [10: 141]. Shu o'rinda biz tilni millatning "ruhi" deb bilamiz. Tilni yo'qotgan xalq o'z milliy qiyofasini ham yo'qotadi. Shu bois har bir xalq o'z ona tilini rivojlantirish va uni madaniy meros sifatida himoya qilishga mas'uldir.

Madaniyatning asosiy qismini qadriyatlar tashkil qiladi va ular ko'pincha til orqali shakllanadi hamda mustahkamlanadi. Masalan, "halollik", "mehnatsevarlik", "vatanparvarlik" kabi tushunchalar til birliklari orqali ijtimoiy ongda barqarorlashadi. P. Bourdieu fikricha, til ijtimoiy maydonning muhim elementi bo'lib, u orqali qadriyatlar mustahkamlanadi [11: 203]. Fikrimizcha, qadriyatlarni shakllantirishda tilning roli beqiyos. Chunki til nafaqat ularni ifodalaydi, balki odamlar ongida ular ustidan nazoratni ham kuchaytiradi. Demak, til bu qadriyatlarning ijtimoiy mexanizmi.

Til xalq og'zaki ijodi (maqol, doston, qo'shiq, ertak)ning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu jihatdan til estetik qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazuvchi kuchdir. Masalan, xalq maqollari jamiyatning ma'naviy boyligini qisqa, lo'nda va ta'sirchan shaklda saqlab qolgan [12: 76]. Men xalq ijodiyotini millatning "madaniy yuragi" deb hisoblayman. Buning tomirida esa til yotadi. Agar til boyligi kamayib ketsa, xalq ijodiyotining rang-barangligi ham sekin-asta yo'qolib ketadi.

Til nafaqat milliy madaniyatni saqlaydi, balki uni boshqa xalqlar bilan almashish imkoniyatini ham beradi. Masalan, ingliz tili bugungi global davrda "xalqaro muloqot" vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. E. Hall "madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi"da til madaniyatlar o'rtasida tushunishni shakllantirishda asosiy vosita ekanini ta'kidlaydi [13:54]. Til milliy chegaralarni buzib, xalqlarni yaqinlashtiradi, fikrimizcha. Shu sababli xorijiy tillarni o'rganish boshqa xalqlarning madaniy boyliklariga kirish eshigi hisoblanadi. Lekin bu jarayon ona tilini kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak.

Natija va muhokamalar. Har bir yangi madaniy yangilik, ilmiy kashfiyot yoki texnologik tushuncha til orqali jamiyatga kiradi. Til yangiliklarni qabul qiladi, ularga nom beradi va ularni ijtimoiy ongga kiritadi. Masalan, "internet", "metaverse", "chatbot" kabi tushunchalar til orqali madaniyatga singib bormoqda [14: 92]. Biz buni til madaniyatning "yangiliklar ombori" deb tushunamiz. Agar til yangiliklarni o'zlashtira olsa, madaniyat ham tez rivojlanadi. Shu sababli tilni

zamon bilan birga rivojlantirish millat taraqqiyotining muhim shartidir. Tilning madaniy funksiyalari shundan iboratki, u milliy identitetni belgilaydi, qadriyatlarni shakllantiradi, xalq ijodiyotini saqlaydi va madaniyatlararo aloqalarni ta'minlaydi. Shaxsiy fikrimizcha tilni madaniyatning ildizi va poydevori deb hisoblaymiz. Ildiz qanchalik mustahkam bo'lsa, daraxt shunchalik serhosil bo'ladi.

So'nggi o'n yilliklarda sun'iy intellekt texnologiyalari tilning o'rni va vazifalariga tubdan yangicha yondashuvni shakllantirdi. Avval til faqat insonlararo muloqotning asosiy vositasi sifatida talqin etilgan bo'lsa, bugun u inson–mashina, mashina–mashina aloqasining ham markazida turibdi. Til jamiyatda kommunikativ birlikni ta'minlash bilan bir qatorda, endilikda axborot oqimlarini avtomatik qayta ishlash, bilimlarni kodlash va yangi ijtimoiy qadriyatlarni yaratishning global mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda [15: 112]. Fikr yuritishimizcha, tilning

“inson-mashina ko'prigi” sifatida shakllanishi insoniyat tarixidagi eng katta ijtimoiy-falsafiy burilishlardan biridir. Chunki bu jarayon nafaqat texnologik, balki ma'naviy va ijtimoiy ong darajasida ham yangicha o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Tilning sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi zamonaviy jamiyatda nafaqat kommunikativ tizimni, balki ijtimoiy ong va qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Endi til inson–inson muloqoti bilan chegaralanmay, inson–mashina va mashina–mashina muloqotida ham asosiy o'rin tutadi. Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, SI yordamida yaratilgan muloqot yangi turdagi “kommunikativ maydon”ni shakllantiradi [16: 65]. Bu o'zgarish tarixiy jihatdan tabiiy jarayon, chunki til har doim jamiyat taraqqiyotiga moslashgan, deb o'ylaymiz. Lekin bugun u jamiyat emas, balki algoritmlar mantiqiga moslashayotganini ko'rib, xavotirlarimiz falsafiy mohiyat kasb etmoqda.

Tabiiy tilni qayta ishlash NLP (Natural Language Processing) texnologiyalari yordamida mashinalar inson nutqini anglash, tahlil qilish va unga javob qaytarish qobiliyatiga ega bo'ldi [17: 78]. Bu jarayon tilning yangi funksiyasini – sun'iy muloqot vositasi sifatidagi rolini shakllantirdi. Shaxsiy munosabatim: Tilning bunday “raqamli qiyofasi” meni ikki yoqlama o'ylantiradi: bir tomondan, bu texnologiyalar ta'lim, tibbiyot, biznes va davlat boshqaruvida ulkan imkoniyatlarni yaratmoqda; ikkinchi tomondan, tilning tabiiy ijtimoiy xususiyati mashinalar tomonidan qayta ishlab chiqilayotgani uni ma'lum darajada sun'iy lashtirish xavfini tug'diradi. Habermasga ko'ra, jamiyatda kelishuv va ijtimoiy uyg'unlik kommunikativ ong orqali shakllanadi [18: 121]. Sun'iy intellekt texnologiyalarida esa muloqot ko'p hollarda instrumental aqlga asoslanadi, ya'ni algoritmlar samaradorlik va tezkorlikni ustuvor qo'yadi. Bu jarayon tilning ijtimoiy kelishuvni emas, balki texnologik maqsadlarni ko'zlovchi vosita sifatida shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bizningcha, Habermasning tanqidi sun'iy intellekt davrida dolzarbroq. Chunki insoniy tilning

mohiyati kelishuv va muloqotda, sun'iy intellekt esa ko'proq foydalilikka yo'naltirilgan. Shuning uchun jamiyatda tilning "insoniyligi"ni asrab qolish dolzarb masalaga aylanadi.

Sun'iy intellekt yordamida til faqat axborotni uzatish emas, balki ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida ham keng qo'llanmoqda. Masalan, algoritmlar orqali ishlab chiqiladigan kontent jamiyat ongiga bevosita ta'sir etib, insonlarning dunyoqarashi va xulqini shakllantirmoqda [19: 45]. Bu holat tadqiqotchi sifatida bizni tashvishga soladi. Chunki tilning bu qadar algoritmlashuvi ijtimoiy ongning mustaqilligini zaiflashtirishi, odamlarni "tayyor qabul qiluvchilar" darajasiga tushirishi mumkin. Shu bois, sun'iy intellekt orqali yaratilgan tilni inson nazoratisiz qo'llash katta ijtimoiy xavflarni keltirib chiqaradi, deb hisoblaymiz. Castells "Tarmoq jamiyati" nazariyasida global axborot oqimlari jamiyatning asosiy strukturasi bo'lib qolayotganini ta'kidlaydi [20: 77]. Til bu jarayonda tarmoqdagi asosiy kodga aylanmoqda. Sun'iy intellekt algoritmlari til orqali ijtimoiy ongni boshqarish, xulqni yo'naltirish va qadriyatlarni shakllantirish imkonini bermoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda avtomatlashtirilgan til (chatbotlar, tarjima tizimlari) jamiyatdagi axborot oqimini filtrlash va boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bizningcha, Castells ta'riflagan "tarmoqlashuv" bugun u orqali yanada kuchaymoqda. Ammo tilning algoritmlashuvi insoniy turfa fikrlilikni toraytirishi, ko'p hollarda esa odamlarni bir xil "tarmoq kodlari" orqali boshqariluvchi obyektarga aylantirishi xavfi yuqori, fikrimizcha.

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tarjima dasturlari, ovozli yordamchilar va ko'p tilli platformalar global muloqotni yengillashtirmoqda. Natijada, tilning yangi funksiyasi – madaniyatlararo integratsiyani tezlashtirish vositasi shakllandi [21: 67]. Shaxsiy fikrimizcha, bu jarayon milliy tillar va madaniyatlarning bir-birini boyitishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq ularning bir xil qolipga solinishi, kichik tillarning yo'qolib ketishi xavfini ham yuzaga chiqaradi. Shu sababli, bunday texnologiyalardan foydalanishda tilning milliy o'zligini saqlab qolish eng muhim masala hisoblanadi. Giddens strukturatsiya nazariyasida jamiyatni ijtimoiy amaliyotlar orqali qayta ishlab turuvchi tizim sifatida ko'radi [22: 103]. Til bu amaliyotlarning markazida turib, ijtimoiy tizimlarni qayta yaratishda vosita vazifasini bajaradi. Sun'iy intellekt davrida esa tilning ushbu vazifasi ikki yo'nalishda o'zgaradi:

Bir tomondan, til orqali insonlar yangi ijtimoiy tizimlarni yarata oladi (masalan, onlayn hamjamiyatlar).

Ikkinchi tomondan, bunday algoritmlar tilni qayta ishlab, insonlarning kundalik amaliyotini o'z iziga solmoqda (masalan, mashina tarjimalari, avtomatik javob tizimlari). Giddensning yondashuvi bunday texnologiya davrida tilning o'zgarishini chuqur tushuntiradi, deb o'ylaymiz. Endilikda til nafaqat inson amaliyotini shakllantirmoqda, balki algoritmik amaliyotlar orqali jamiyatni o'zgartirish vositasiga aylangan.

Sun'iy intellekt orqali yaratilayotgan matn va nutqlar ba'zan manipulyatsiya, yolg'on ma'lumot yoki stereotiplarni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin [23: 93]. Tilning bu qirrasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan baholash lozim, chunki u jamiyatda axloqiy qadriyatlarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tilning axloqiy nazoratdan chiqishi jamiyat ongida katta inqirozlarga olib kelishi mumkin, deb o'ylayman. SI yaratayotgan matnlar insoniyatning ma'naviy mas'uliyati bilan uyg'unlashmasa, tilning asl mohiyati — insonparvarlik va hamjihatlikni ta'minlash kuchi — zaiflashib qoladi.

Demak, sun'iy intellekt davrida til yangi funksional qirralarga ega bo'ldi: u endi nafaqat ijtimoiy muloqot, balki inson–mashina kommunikatsiyasi, axborot oqimini boshqarish, global madaniy integratsiya va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish vositasiga aylandi. Shaxsiy munosabatim: Menimcha, tilning bu yangi qirralari insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Lekin bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish uchun jamiyat SI texnologiyalarini ijtimoiy-falsafiy, madaniy va axloqiy nazorat ostida qo'llashi zarur. Aks holda, til o'zining ijtimoiy mohiyatidan uzoqlashib, sun'iy manipulyatsiyaning quroliga aylanishi mumkin.

Yuqorida olib borilgan o'rganish va tahlillar asosida quyidagi xulosalar olindi:

Birinchidan, til ijtimoiy mavjudlikning o'zagini tashkil etadi. U nafaqat insonlarning kundalik muloqotini ta'minlaydi, balki jamiyatni bir butun holatda ushlab turadi. Tilning yo'qolishi jamiyatning o'z tarixiy mohiyatidan ajralishi demakdir. Shu ma'noda, tilni falsafiy nuqtai nazardan jamiyatning “ruhiy tanasi” sifatida talqin qilish mumkin. Til orqali xalq o'zligini angelaydi va tarixiy xotirasini saqlaydi.

Ikkinchidan, til ijtimoiy ongning tashqi ko'rinishi sifatida tafakkurni moddiylashtiradi. Inson tafakkuri til orqali ijtimoiy hayotga chiqadi va boshqa odamlar bilan almashinadi. Til bo'lmasa, bilimlar ham, g'oyalar ham faqat shaxs ongida qolib ketar edi. Demak, til ong va borliq o'rtasidagi vositachilikni bajarib, ijtimoiy haqiqatni shakllantiradi.

Uchinchidan, til orqali xalqning madaniy merosi, urf-odatları va milliy qadriyatlari avloddan avlodga o'tadi. Masalan, xalq og'zaki ijodi, maqollar va dostonlar til orqali ijtimoiy ongni boyitadi. Falsafiy nuqtai nazardan olganda, til madaniyatning “kodlangan matni” bo'lib, u orqali jamiyat o'zining ruhiy dunyosini saqlaydi va yangilaydi.

To'rtinchidan, til jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning turmush tarzini, dunyoqarashini va ijtimoiy mavqeini aks ettiradi. Shu sababli tilni ijtimoiy stratifikatsiya vositasi sifatida ham ko'rish mumkin. Masalan, rasmiy nutq, oddiy so'zlashuv nutqi yoki yoshlar jargonlari jamiyatning turli qatlamlarini ifodalaydi. Masalaga falsafiy jihatdan qarasaq, til ijtimoiy ierarxiya va tengsizlikning ham o'ziga xos “belgilar tizimi” hisoblanadi.

Beshinchidan, global davrda ingliz tili yoki boshqa xalqaro tillarning kuchayishi xalqlar o'rtasida muloqotni yengillashtirsa-da, kichik milliy tillar uchun xavf tug'diradi. Bu holat dialektik

ziddiyatni yuzaga keltiradi: bir tomondan, tillar orqali madaniy yaqinlashuv; ikkinchi tomondan, milliy o'zlikning so'nishi. Shu bois tilning ijtimoiy falsafiy mohiyati u global integratsiya va milliy identitet o'rtasidagi "ko'prik"dir.

Oltinchidan, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar tilning yangi kommunikativ qirralarini yaratmoqda. Masalan, mashina tarjimasi yoki AI chatlari orqali til nafaqat insonlar o'rtasida, balki inson va texnologiya o'rtasida ham vositachi bo'lib qolmoqda. Bu jarayon tilning falsafiy mohiyatini kengaytirib, uni jamiyat taraqqiyotida yanada markaziy o'ringa olib chiqmoqda.

Ushbu xulosalarga asoslanib tavsiyalar ham berib o'tamiz:

- Tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki milliy ruh, tarixiy xotira va jamiyatning ontologik poydevori sifatida asrash kerak. Milliy siyosatda tilni falsafiy qadriyat darajasiga ko'tarish zarur.

- Til tafakkurning tashqi shakli ekanligini hisobga olib, ta'lim siyosatida tilni chuqur o'qitish, til vositasida tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish lozim. Bu yoshlarning falsafiy dunyoqarashini shakllantiradi.

- Folklor, qadimiy asarlar va milliy adabiyotlarni til orqali yangi avlod ongiga yetkazish, ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ommalashtirish kerak. Bu jarayon millatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

- Dialektlar, mahalliy nutq shakllari va yoshlar tili jamiyatdagi xilma-xillikni ifodalaydi. Biroq bu xilma-xillik ijtimoiy tengsizlikka sabab bo'lmasligi kerak. Shu bois til siyosatida tenglik tamoyiliga amal qilish lozim.

- Global til o'rganish foydali bo'lsa-da, milliy tillarni yo'qolishdan asrash falsafiy va ijtimoiy zaruratdir. Har bir millatning tili uning ma'naviy mustaqilligining asosidir. Shu bois davlat siyosatida milliy tilni saqlash va rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аристотель. Политика. — М.: Мысль, 1997. — 384 с.
2. Назаров, Қ. Жамият ва тилнинг ўзаро боғлиқлиги. — Тошкент: Фан, 2018. — 212 б.
3. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи. — М.: Прогресс, 1993. — 268 с.
4. Humboldt W. von. On Language. — Cambridge: CUP, 1999. — 328 p.
5. Anderson B. Imagined Communities. — London: Verso, 2006. — 256 p.
6. Шарипов А. Тил ва маданий мерос. — Тошкент: Академнашр, 2020. — б-214, 310 б.
7. Bernstein B. Class, Codes and Control. — London: Routledge, 2003. — p. 119, 334 p.

8. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. — New Jersey: Pearson, 2021. — p. 67, 1152 p.
9. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. — New York: Harcourt, Brace & Company, 1921. — p. 88, 258 p.
10. Мейе А. Введение в сравнительное изучение индоевропейских языков. — Москва: Изд-во иностранной литературы, 1954. — s. 141, 448 с.
11. Bourdieu, P. Language and Symbolic Power. — Cambridge: Polity Press, 1991. — p. 203, 320 p.
12. Jo‘rayev, M. Xalq og‘zaki ijodi va milliy tafakkur. — Toshkent: Sharq, 2018. — s. 76, 276 b.
13. Hall, E. T. Beyond Culture. — New York: Anchor Books, 1976. — p. 54, 256 p.
14. Crystal, D. Language and the Internet. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — p. 92, 319 p.
15. Jurafsky, D., Martin, J. H. Speech and Language Processing. — 3rd ed. — New Jersey: Pearson, 2023. — p. 112, 824 p.
16. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. — Boston: Beacon Press, 1984. — p. 65 465 p.
17. Crystal, D. Language and the Internet. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — s. 78, 319 p.
18. Habermas, J. Moral Consciousness and Communicative Action. — Cambridge: MIT Press, 1990. — p. 121, 239 p.
19. Bourdieu, P. Language and Symbolic Power. — Cambridge: Polity Press, 1991. — p. 45, 320 p.
20. Castells, M. The Rise of the Network Society. — 2nd ed. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. — p. 77, 597 p.
21. Sattorov, A. Globalizatsiya sharoitida til va madaniyat. — Toshkent: Sharq, 2020. — s. 67, 210 b.
22. Giddens, A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. — Berkeley: University of California Press, 1984. — p. 103, 417 p.
23. Usmonov, Q. Tilshunoslik va falsafa: integrativ yondashuv. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 93-b, 280 b.